

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY Tajribalar.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH Tajribasi.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR Tajribalari.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOYIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quddat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	



O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHIYATI VA MUAMMOLARI

Raupov Shuxrat Soyibovich

Buxoro davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Email: mukofot@adm.gov.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston mintaqalarida barqaror turizmni rivojlantirish salohiyati va muammolari tadqiq etilgan bo'lib, turizm resurs bazasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan va resurslar bazasi 1–5 shkala asosida baholash natijalari orqali O'zbekistonda barqaror turizm rivojlanishidagi asosiy to'siqlar aniqlangan.

Kalit so'zlar: turizm resurslari, barqaror turizm, hududiy turizm salohiyati, madaniy meros, ekoturizm, agroturizm, hunarmandchilik turizmi, turizm infratuzilmasi, hududiy baholash.

Abstract. This article examines the potential and challenges of developing sustainable tourism in the regions of Uzbekistan, develops criteria for assessing the tourism resource base, and identifies the main obstacles to the development of sustainable tourism in Uzbekistan through the results of assessing the resource based on a scale of 1-5.

Key words: tourism resources, sustainable tourism, regional tourism potential, cultural heritage, ecotourism, agritourism, handicraft tourism, tourism infrastructure, regional assessment.

Аннотация. В данной статье рассмотрены потенциал и проблемы развития устойчивого туризма в регионах Узбекистана, разработаны критерии оценки ресурсной базы туризма и на основе результатов оценки ресурсной базы по шкале от 1 до 5 определяются основные препятствия на пути развития устойчивого туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: туристские ресурсы, устойчивый туризм, региональный туристский потенциал, культурное наследие, экотуризм, агротуризм, ремесленный туризм, туристская инфраструктура, региональная оценка.

KIRISH

So'nggi yillarda turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib, ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy o'sish, hududiy rivojlanish va bandlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasi global yalpi ichki mahsulotning muhim qismini shakllantirib, xizmatlar eksportida yetakchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ko'plab davlatlar turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston ham boy tarixiy-madaniy merosi, noyob tabiiy landshaftlari hamda qadimiy savdo va madaniyat markazlari bilan turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat hududida Buyuk Ipak yo'li davriga oid ko'plab tarixiy shaharlar, me'moriy majmualar, arxeologik yodgorliklar va an'anaviy hunarmandchilik markazlari mavjud. Shu bilan birga, tog' tizmalari, cho'l hududlari, daryo vodiylari hamda qo'riqlanadigan tabiiy hududlar ekoturizm, agroturizm va sarguzasht turizmi kabi yo'nalishlarni rivojlantirish uchun muhim resurs bazasini shakllantiradi.

Biroq turizm resurslarining mamlakat hududi bo'yicha taqsimoti bir xil emas. Ayrim hududlarda madaniy meros obyektlari yuqori darajada to'plangan bo'lsa, boshqa hududlarda tabiiy resurslar yoki hunarmandchilik salohiyati ustunlik qiladi. Shu sababli turizmni barqaror rivojlantirish siyosatini ishlab chiqishda hududlarning turizm resurs bazasini kompleks baholash, ularning ixtisoslashuvini aniqlash va mavjud salohiyatdan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston hududlarining turizm resurs bazasini hududiy kesimda tahlil qilish, madaniy meros, tabiiy boyliklar, ekoturizm imkoniyatlari hamda agro va hunarmandchilik turizmi salohiyatini ko'p mezonli baholash usuli asosida aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari hududiy turizm siyosatini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm resurslari va ularning hududiy salohiyatini baholash masalasi zamonaviy turizm iqtisodiyoti va hududiy rivojlanish tadqiqotlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda turizm salohiyatini aniqlashda resurs bazasi, infratuzilma, ekologik barqarorlik hamda mahalliy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng o'rganilgan. Ayniqsa, hududiy turizm resurslarini kompleks baholash orqali barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish masalasi ko'plab tadqiqotlarda asosiy ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqiladi.

Saparov K., Omirzakova M., Yeginbayeva A., Sergeyeva A., Saginov K. va Askarova G. tadqiqotlarida turizm va rekreatsion salohiyatni baholashning kompleks metodologiyasi ishlab chiqilgan. Mualliflar Qozog'iston Respublikasining Aktobe viloyati misolida qishloq hududlarining turizm va rekreatsion resurslarini tahlil qilib, ularni barqaror rivojlantirish uchun ko'p mezonli baholash tizimini taklif etgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududiy turizm salohiyatini baholashda tabiiy resurslar, madaniy meros, ekologik holat va infratuzilma darajasi birgalikda tahlil qilinishi zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, mualliflar turizm resurslarining hududiy taqsimoti va ulardan foydalanish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash turizm siyosatini shakllantirishda muhim omil ekanligini qayd etadilar (Saparov K. va boshqalar 2024).

Barqaror turizm infratuzilmasining hududiy rivojlanish siyosatiga ta'siri Muhammad M., AB A. va Supriyadi H. tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar Indoneziyaning Yogyakarta milliy strategik turizm hududi misolida ekoturizm infratuzilmasining rivojlanishi mahalliy boshqaruv siyosati va hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib beradilar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, transport infratuzilmasi, ekologik boshqaruv tizimi hamda turistik xizmatlar sifatining yaxshilanishi hududlarda barqaror turizmni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mahalliy boshqaruv organlarining turizm siyosati va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan chora-tadbirlari turizm resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi (Muhammad M. va boshqalar 2025).

Turizm resurslarining muhim tarkibiy qismi sifatida madaniy meros obyektlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. UNESCO World Heritage Centre ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududida bir qator noyob tarixiy va madaniy obyektlar Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ular mamlakat turizm salohiyatining muhim qismini tashkil etadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlar Buyuk Ipak yo'li davriga oid boy madaniy merosi bilan xalqaro turizm oqimlarini jalb etuvchi markazlar sifatida e'tirof etiladi (UNESCO World Heritage Centre).

Bundan tashqari, turizm salohiyatini shakllantirishda moddiy bo'lmagan madaniy meros elementlari ham muhim o'rin tutadi. UNESCO Intangible Cultural Heritage ma'lumotlariga ko'ra, an'anaviy hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodi, milliy musiqa va urf-odatlar turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilishda muhim resurs hisoblanadi. Xususan, an'anaviy hunarmandchilik va milliy madaniyat elementlari hududiy turizmni rivojlantirish va mahalliy iqtisodiy faoliyatni faollashtirishda muhim rol o'ynaydi (UNESCO Intangible Cultural Heritage 2025).

Tabiiy resurslar va ekologik hududlar turizmning muhim tarkibiy qismi sifatida ekologik barqarorlik masalalari bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan e'lon qilingan milliy ma'ruzada mamlakat hududining muhim qismi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar sifatida ajratilgani ta'kidlanadi. Ushbu hududlar biologik xilma-xillikni saqlash bilan birga ekoturizmni rivojlantirish uchun ham muhim resurs bazasini yaratadi (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi 2023).

Shuningdek, UNESCO Intangible Cultural Heritage ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududida moddiy bo'lmagan madaniy merosni saqlash va rivojlantirish bo'yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar an'anaviy hunarmandchilik, milliy madaniyat va tarixiy merosni turizm faoliyati bilan integratsiya qilish orqali hududiy turizm salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi (UNESCO Intangible Cultural Heritage).

Yuqoridagi ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, turizm resurslarini baholash va ulardan samarali foydalanish turizm siyosatini shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, madaniy meros, tabiiy resurslar, ekoturizm imkoniyatlari hamda hunarmandchilik salohiyatini kompleks tahlil qilish hududiy turizmni barqaror rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda turizm resurslari bo'yicha ma'lumotlar rasmiy statistik manbalar, UNESCO ma'lumotlar bazasi hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi hisobotlaridan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar hududiy kesimda tizimlashtirilib, madaniy meros, tabiiy boyliklar, ekoturizm salohiyati va agro-hunarmandchilik ko'rsatkichlari asosida 5 ballik ko'p mezonli baholash usuli orqali tahlil qilindi hamda hududlararo qiyosiy tahlil amalga oshirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror turizmni rivojlantirish siyosatini ishlab chiqishda mamlakatda mavjud resurslar bazasini hududiy kesimda baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi [1,2]. O'zbekiston tabiiy-geografik jihatdan uch xil hududdan iborat. Bular: Zarafshon va Amudaryo daryolari oralig'idagi qadimiy shahar markazlari; janubi-sharq va shimoli-sharqdagi tog'li hududlari; shimoli-g'arb tomon cho'zilgan qurg'oqchil hududlardir. Har bir hududning o'ziga xos resurslari turli xil turistik potensialni namoyish qiladi.

Madaniy meros resurslari. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng ko'p YUNESKO Jahon merosi obyektlariga ega davlatlardan biri bo'lib, bugungi kunda umumiy soni 7 tani (5 ta madaniy, 2 ta tabiiy) tashkil qiladi (1-jadval) [3].

1-jadval. O'zbekiston YUNESKO Jahon merosi obyektlari (2026-yil holatiga ko'ra)¹

Jahon merosi obyekti	Joylashgan hududi	Yil	Asosiy xususiyati	Maqomi
Ichan Qal'a	Xorazm (Xiva)	1990	IX-XIX asrlarga oid mudofaa devorlari ichidagi shahar (37,5 ga). 300 dan ortiq tarixiy inshootlar	Yagona hududiy obyekt
Buxoro tarixiy markazi	Buxoro	1993	IV asrdan saqlanib kelayotgan Markaziy Osiyo shahrining arxitektura ansambli. Kalon masjidi, Ark qal'asi, savdo rastalari, 250 dan ortiq tarixiy inshootlar	Yagona hududiy obyekt
Shahrisabz tarixiy markazi	Qashqadaryo	2000	Amir Temur davlatchiligi davridagi XIV–XV asr me'morchilik obidalari. Oq Saroy qasri qoldiqlari	Yagona hududiy obyekt
Samarqand - Madaniyatlar chorrahasi	Samarqand	2001	Registon ansambli, Shohizinda, Go'ri-Amir maqbarasi va boshqa Temuriylar davri obidalari	Yagona hududiy obyekt
G'arbiy Tyan-Shan	Toshkent viloyati / Farg'ona	2016	O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston uchun birgalikdagi tabiiy meros obyekti. Noyob tog' ekotizimlari va biologik xilma-xillik	Transmilliy obyekt (3 davlat)
Ipak yo'li: Zarafshon-Qoraqum yo'lagi	Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqalar	2023	O'zbekiston hududidagi Buyuk Ipak yo'lining arxeologik va tarixiy merosi. Bir qator shahar va karvonsaroylarni o'z ichiga oladi	Transmilliy obyekt (ko'p davlat)
Turon sovuq qishli cho'llari	Qoraqalpog'iston, Buxoro, Navoiy	2023	Markaziy Osiyo cho'l ekotizimlari. O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston uchun birgalikdagi tabiat merosi	Transmilliy obyekt (3 davlat)

1-jadvalda ko'rsatilganidek, ushbu obyektlar mamlakat bo'ylab geografik jihatdan keng tarqalgan. To'rttasi yagona hududiy obyekt (Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz), uchta esa transmilliy maqomga ega. Bundan tashqari, O'zbekiston YUNESKO moddiy bo'lmagan madaniy meros ro'yxatida ham bir necha o'rin egallagan: Rishton kulolchiligi, Marg'ilon atlas va adras gazlamalari, Boysun bayram madaniyati va boshqalar [4]. Bu ko'rsatkich madaniy turizm mahsulotini diversifikatsiya qilish uchun muhim asos hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekistonning madaniy meros resurslari geografik jihatdan asosan "Oltin uchburchak" (Samarqand, Buxoro, Xiva) hududida to'plangan. 68,6 foizlik mehmonxona kontsentratsiyasi (1-jadval) shu hududlarda YUNESKO obyektlari mavjudligi bilan bevosita bog'liq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz obyekti esa qolganlariga nisbatan kam turistik oqim qabul qiladigan hududlar qatoriga kiradi. Ushbu holat ko'rib chiqiladigan erishilmagan salohiyat muammosining yaqqol misolidir.

Tabiiy resurslar va qo'riqlanadigan hududlar. Davlat ekologiya qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududining 14,08 foizi (6,3 mln ga) qo'riqlanadigan hududlar toifasiga kiradi [5]. Ular orasida 2016-yilda YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan G'arbiy Tyan-Shan transmilliy tabiiy merosi alohida o'rin tutadi. Ugam-Chotqol milliy bog'i (574,603 ga) va Nurota-Qizilqum biosfera qo'riqxonasi tabiiy ekoturizm resurslari sifatida xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan. 2023-yilda YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan "Turon sovuq qishli cho'llari" esa Qoraqalpog'iston, Buxoro va Navoiy viloyatlarida cho'l ekoturizmini rivojlantirishning rasmiy asosini yaratdi.

Hunarmandchilik va agroturizm resurslarining asosini YUNESKO moddiy bo'lmagan madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan hunarmandchilik turlari tashkil etadi. Rishton (Farg'ona) kulolchiligi va Marg'ilon (Farg'ona) atlas hamda adras gazlamalari xalqaro miqyosda tan olingan [6]. Farg'ona viloyatining o'zida 4,500 hunarmand ro'yxatdan o'tgan [7]. Bundan tashqari, Samarqand va Zarafshon havzasidagi uzum va mevachilik agroturizmi, Xorazm polizchilik madaniyati ham kengayib borayotgan xalqaro talab uchun istiqbolli mahsulot bo'la oladi (2-jadval).

1 Manba: YUNESKO ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2-jadval. O'zbekiston viloyatlari bo'yicha turizm resurslari bazasi²

Viloyat	YUNESKO	Qo'riqlanadigan hududlar	Asosiy tabiiy resurslar	Asosiy madaniy meros	Hunarmandchilik / Agroturizm
Samarqand	2 ta (2001, 2023)	Zarafshon qo'riqxonasi	Zarafshon daryosi vodiysi, Nurota tog'lari etagi	Registon, Shohizinda, Go'ri Amir, Ulug'bek observatoriyasi	Zarafshon uzumi, gilos; atlas to'qimachilik
Buxoro	2 ta (1993, 2023)	Qizilqum qo'riqxonasi (qisman)	Amudaryoning quyi oqimi, Qizilqum cho'li	Poyi Kalon ansambli, Ark qal'asi, Baxouddin Naqshband maqbarasi	Qorakul qo'y terisi; hunarmandchilik (gilamdo'zlik)
Xorazm	1 ta (1990)	Amudaryo deltasi hududlari	Amudaryo deltasi, Orol dengizi qoldig'i (shimoli)	Ichon Qal'a, Dishan Qal'a, ko'hna shaharlar (Ellikqal'a)	Xorazm polizi; ipakchilik; kulolchilik
Qashqadaryo	1 ta (2000)	Kitob geologik qo'riqxonasi	Zarafshon va Hisor tog' tizmasi etaklari	Shahrisabz tarixi (Oq Saroy), Dor us-Saodat majmuasi	Uzumchilik; pichoqchilik hunarmandchiligi
Toshkent viloyati	1 ta (2016, qisman)	Ugam-Chotqol milliy bog'i (574 603 ga)	Tyan-Shan tog' tizmasi, Chorvoq suv ombori (600 mln m ³)	Mingbuloq, Zangiota majmuasi	Tog' asali; turistik fermerlik
Farg'ona vodiysi (3 viloyat)	1 ta (2016, qisman)	G'arbiy Tyan-Shan (qisman)	Farg'ona tog' etaklari, Qo'qond, Marg'ilon vodiysi	Qo'qond xonligi obidalari, Marg'ilon to'qimachilik markazi	Rishton kulolchiligi; atlas va adras gazlamalari; anor
Surxondaryo	-	Hisor qo'riqxonasi (qisman)	Boysun tog'lari, Vaxsh daryosi vodiysi	Termiz arxeologik majmuasi (buddaviylik davri), Fayoztepa	Boysun madaniyat; ko'rpa-ko'rpacha tikish
Qoraqalpog'iston	1 ta (2023, qisman)	Saygachiy qo'riqxonasi; Orol dengizi hududi	Ustyurt platosi, Orol dengizi ekologik zonasi, Qizilqum cho'li	Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi (avant-garde to'plam); Nekropol Mizdaxkon	An'anaviy qoraqalpoq kulolchiligi va to'qimachilik
Navoiy	1 ta (2023, qisman)	Nurota qo'riqxonasi; Qizilqum (qisman)	Nurota tog'lari, Qizilqum cho'li, Aydarkul ko'li	Raboti Malik karvonsaroyi; Nurota qal'asi qoldiqlari	Navoiy o'rmonchilik; eko-lagerlar

2-jadval O'zbekiston turizm resurslarining geografik xususiyatini ko'rsatib beradi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, madaniy va tabiiy resurslar ko'pincha bir-birini to'ldiradi, ammo ularning geografik taqsimoti sezilarli darajada farq qiladi. Samarqand va Buxoro madaniy resurslarda yetakchi bo'lsa, Toshkent viloyati, Qoraqalpog'iston va Surxondaryo tabiiy va ekologik aktivlarda ustunlik qiladi. Farg'ona vodiysi esa hunarmandchilik resurslari jihatidan alohida o'rin egallaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston viloyatlarining turizm resurs bazasi ko'p mezonli ball tizimi usuli yordamida to'rtta o'lchov bo'yicha baholadik. Bular madaniy meros, tabiiy boyliklar, ekoturizm salohiyati va agro/hunarmandchilik turizmi hozirgi holati bo'yicha 5 ballik shkalada baholandi. Baholash uchun faqat rasmiy, tekshirib bo'ladigan manbalar asos qilib olindi. Har bir hudud bo'yicha ballash mezonlari 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. Turizm resurs bazasini baholash mezonlari (1-5 shkala)³

Ball	Madaniy meros	Tabiiy boyliklar	Ekoturizm salohiyati	Agro / Hunarmandchilik
5	2 va undan ko'p YUNESKO obyekti; 1 000+ ro'yxatdagi tarixiy yodgorlik	Qo'riqlanadigan hududlar > 15%; biosfera yoki tabiiy meros obyekti	> 500,000 ga qo'riqlanadigan maydon; faol eko-marshrutlar va markazlar mavjud	YUNESKO ro'yxatida kamida 1 tur; faol hunarmandchilik ustaxonasi
4	1ta YUNESKO obyekti; 500-1 000 yodgorlik	Qo'riqlanadigan hududlar 10-15%; milliy bog' yoki qo'riqxonasi mavjud	100,000-500,000 ga; qisman eko-marshrutlar yo'lga qo'yilgan	Milliy yoki 200-500 ta ro'yxatdagi hunarmandchilik ustaxonasi
3	YUNESKoning kutilayotgan ro'yxatida; 200-500 yodgorlik	Qo'riqlanadigan hududlar 5-10%; tog' yoki o'rmon qo'riqxonasi bor	50,000-100,000 ga; imkoniyat mavjud, lekin cheklangan	Mintaqaviy ahamiyatga ega; 50-200 ta ustaxona yoki ferma


2 Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat ekologiya qo'mitasi, YUNESKO Jahon merosi va moddiy bo'lmagan madaniy meros ro'yxatlari, O'zbekiston Turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida tizimlashtirilgan

3 Muallif ishlanmasi



Ball	Madaniy meros	Tabiiy boyliklar	Ekoturizm salohiyati	Agro / Hunarmandchilik
2	100-200 ro'yxatdagi yodgorlik; xalqaro tan olinishi yo'q	Qo'riqlanadigan hududlar 2-5%; maxsus maqom berilmagan	10,000-50,000 ga; kam rivojlangan, marshrutlar yo'q	An'anaviy hunarmandchilik mavjud, lekin tashkiliy asos yo'q
1	100 dan kam yodgorlik; hech qanday xalqaro tan olinish yo'q	Qo'riqlanadigan hududlar < 2%; ekologik holat qoniqarsiz	10,000 ga dan kam; amalda ekoturizm infratuzilmasi yo'q	Turizm uchun ahamiyatli agro yoki hunarmandchilik resursi yo'q

3-jadvalda berilgan mezon asosida baholanganda O'zbekiston hududlarining turizm resurs bazasi tarkibi va umumiy salohiyati sezilarli darajada farq qiladi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston hududlarining turizm resurslari ba'zasini baholash natijalari⁴

Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston va Farg'ona vodiysi eng yuqori jami ballni (14/20 va 13/20) to'plagan. Biroq, ularning resurs tarkibi tubdan farqli. Masalan, Samarqand va Buxoroda madaniy meros ustunlik qilsa (5 ball), Farg'ona vodiysining afzalligi agro va hunarmandchilik turizmida (5 ball) namoyon bo'ladi. Qoraqalpog'iston va Surxondaryo ham 14/20 ball bilan yuqori o'rinda turadi, ularning kuchli tomoni tabiiy boyliklar va ekoturizm salohiyatida (har birida 4–5 ball), madaniy meros esa nisbatan past baholangan (2–3 ball). Xorazm va Toshkent viloyati o'rta darajadagi (11/20 va 12/20) ko'rsatkichlarni namoyon etadi, Navoiy esa (8/20) barcha to'rtta o'lchov bo'yicha past ball olgan yagona viloyat bo'lib, hudud uchun asosiy turizm mahsulotini shakllantirish talab etiladi.

Mavjud salohiyatni iqtisodiy faoliyatga aylantirish uchun infratuzilma (joylashtirish, transport va boshqalar) va inson kapitali (malakali kadrlar, gidlar, o'quv muassasalari) zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston hududlarining turizm resurs bazasi geografik jihatdan sezilarli darajada notekis taqsimlanganligini ko'rsatdi. Madaniy meros resurslari asosan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy markazlarda jamlangan bo'lsa, tabiiy va ekologik resurslar Toshkent viloyati, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston hamda Navoiy hududlarida ko'proq uchraydi. Hunarmandchilik va agroturizm resurslari esa Farg'ona vodiysida nisbatan yuqori darajada rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bu holat mamlakat turizm tizimining hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Ko'p mezonli baholash natijalariga ko'ra, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston va Farg'ona vodiysi eng yuqori turizm resurs salohiyatiga ega hududlar sifatida aniqlangan. Biroq ushbu hududlarda ham turizm resurslari tarkibi turlicha bo'lib, ayrim hududlarda madaniy meros ustun bo'lsa, boshqalarida tabiiy

⁴ Muallif ishlanmasi



yoki hunarmandchilik resurslari yetakchi o'rin egallaydi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda resurslar mavjud bo'lishiga qaramasdan, infratuzilma va kadrlar ta'minotining yetarli darajada rivojlanmaganligi turistik oqimning to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mavjud turizm salohiyatini iqtisodiy rivojlanish omiliga aylantirish uchun hududiy turizm siyosatini resurslarning xususiyatlariga mos ravishda shakllantirish zarur. Bunda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, transport va joylashtirish xizmatlarini kengaytirish, mahalliy hunarmandchilik va agroturizmni qo'llab-quvvatlash, shuningdek malakali turizm kadrlarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chora-tadbirlar turizm resurslaridan samarali foydalanish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish hamda mamlakat turizm raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgana adabiyotlar ro'yxati:

1. Saparov K., Omirzakova M., Yeginbayeva A., Sergeyeva A., Saginov K., Askarova G. Assessment for the Sustainable Development of Components of the Tourism and Recreational Potential of Rural Areas of the Aktobe Oblast of the Republic of Kazakhstan // Sustainability. - 2024. - Vol. 16, № 9. - P. 3838. - DOI: 10.3390/su16093838.
2. Muhamad M., AB A., Supriyadi H. The Influence of Sustainable Ecotourism Infrastructure on Local Government Policy in the National Strategic Tourism Area of Yogyakarta // Jurnal Ilmiah Ilmu Terapan Universitas Jambi. - 2025. - Vol. 9, № 1. - P. 292–312. - DOI: 10.22437/jiituj.v9i1.37888.
3. UNESCO World Heritage Centre. Uzbekistan // UNESCO World Heritage Convention: URL: <https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz>
4. UNESCO Intangible Cultural Heritage. Art of crafting and playing Kobyz // UNESCO Intangible Cultural Heritage: 2025. - URL: <https://ich.unesco.org/en/USL/art-of-crafting-and-playing-kobyz-02329>
5. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. Atrof-muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza: O'zbekiston. - Barqaror rivojlanish xalqaro instituti, 2023.
6. UNESCO Intangible Cultural Heritage. Uzbekistan: Activities with the patronage of the Convention // UNESCO Intangible Cultural Heritage: URL: <https://ich.unesco.org/en/state/uzbekistan-UZ?info=activities-with-the-patronage>
7. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal. Qo'qon va Rishton dunyo hunarmandlarini o'z bag'riga chorlamoqda // gov.uz: 2023. - 8 sen. - URL: <https://gov.uz/oz/news/view/2484>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>